

## O'ZBEKISTON ENERGETIKA SOHASINI RIVOJLANISHIDA CHET EL TAJRIBASIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI

**Eshmamdov A.N.**

O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti,  
Magistratura tinglovchisi

**Ruzmatov B.SH.**

O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti,  
Magistratura tinglovchisi

**ANNOTATSIYA:**Maqolada, energetikaning revojlantirishida chet el tajribasining dolzarbligi, energetika sohasini rivojlantirishning chet-el tajribasidan foydalanish imkoniyatlaridagi qarashlar, O'zbekistonning yoqilg'i-energetika sohasida chet-el davlatlaridan olinadigan tajribalari, energetikaga oid yangi islohotlar bosqichi, energetikaga doir yangi bosqichda xorij tajribasining mamlakatimizdagi qo'llanish samaradorligi, xorij tajribasida energetikadan foydalanishning istiqbollari, O'zbekistonda yoqilg'i-energetikaning samaradorligini oshirish yo'llari bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:**Energetika, chet-el tajriba, yoqilg'i-energetika, xorij tajribasi, samardorlik, islohotlar bosqichi, dolzarblik, energetika sohasi, istiqbollar, istiqbolli islohotlar, energetikaga oid yangi bosqich.

**Abstract:**In the article, the relevance of foreign experience in the development of energy, views on the possibilities of using foreign experience in the development of the energy sector, the experiences of foreign countries in the fuel and energy sector of Uzbekistan, the stage of new energy reforms, the use of foreign experience in our country in the new stage of energy The efficiency of planning, the prospects of using energy in foreign experience, the ways to increase the efficiency of fuel and energy in Uzbekistan are described.

**Keywords:**Energy, foreign experience, fuel and energy, foreign experience, efficiency, stage of reforms, relevance, energy industry, prospects, promising reforms, new stage of energy.

Yoqilg'i-energetika kompleksining davlat tomonidan tartibga solinishidagi ijtimoiy-iqtisodiy roliga yetarlicha baho bermaslik aholining davlat hokimiyati institutlariga bo'lgan ishonchining zaiflashishiga olib keladi. Ammo bu ishonchni oshirishga qaratilgan shoshilinch sa'y-harakatlar davlat va biznes munosabatlarida keskinlikni keltirib chiqarmoqda. Bularning ikkalasi ham mamlakatdagi investitsion vaziyatning yomonlashishiga olib keladi va investitsion risklarni oshiradi. Bu yerda ekstremal holatlarga yo'l qo'ymaslik uchun yoqilg'i-energetika kompleksini davlat tomonidan tartibga solishning kontseptual asoslarini qayta ko'rib chiqish davlatimiz uchun dolzarb masalalardan biriga aylanishi zarur. Shu urinda barcha chora-tadbirlarimiz mamlakatimizning yoqilg'i-energetikaga bulgan extiyojlari makro iqtisodiyot tarmoqlarida energetika tejamkorligini oshirish uchun o'z navbatida chet el davlatlarining yoqilg'i-energetika sohasidagi tajribalariga asosan davlatimiz yoqilg'i-energetika sohasidagi imkoniyatlarni bevosita kengaytirishini ko'rishimiz mumkin.

Mamlakatning yoqilg'i-energetika sohasidagi yangi bosqichlarini chet el davlatlarining ayniqsa revojlantirgan mamlakatlarning ilg'or tajribalari asosida ushbu sohaning muhim tarmoqlari davlatning mikro va makro iqtisodiyot tizimlarida yoqilg'i-energetikaga bo'lgan talabni qondirishga erishilishini ko'rishimiz mumkin. Shu boyis quyidagi bir qator xorij mamlakatlarini ilg'or tajribalarini ko'rib chiqishni maqsad qilindi.

### **Yoqilg'i-energetika kompleksining Rossiya Federatsiyasi misolida**

Rossiya dunyodagi eng yirik yoqilg'i-energetika resurslariga ega. Dunyodagi tasdiqlangan neft zahiralarning 13% ga yaqini va tabiiy gaz zahiralarning 34% i yer shari hududining 13% ga, ya'ni dunyo aholisining 3% dan kamrog'i istiqomat qiluvchi mamlakatda to'plangan. Rossiyada birlamchi energiya manbalarining yillik ishlab chiqarilishi jahon ishlab chiqarishining 12% dan ortig'ini tashkil qiladi. Bugungi kunda yoqilg'i-energetika kompleksi Rossiya iqtisodiyotining eng muhim, barqaror ishlaydigan va jadal rivojlanayotgan sanoat komplekslaridan biridir. U yalpi ichki mahsulotning chorak qismini, sanoat ishlab chiqarishining uchdan bir qismini, federal byudjet daromadlarining qariyb

yarmini, mamlakat eksporti va valyuta tushumini tashkil qiladi. Jahon bozorida neft narxining yuqoriligi tufayli ishlab chiqarish o'sishi "Rossiyaning 2020-yilgacha bo'lgan energetika strategiyasi" da belgilangan prognozdan oshib ketdi. Bu yangi bozor sharoitida Rossiyada neft qazib olishning o'sishi prognozini yanada aniqroq qilish mumkin. Rossiya neftining jahon bozorida o'rtacha narxi bir barrel uchun 25-35 dollar (hozir bir barrel uchun 76,29 dollar) oralig'ida bo'lgan holda, statistik ma'lumotlarga ko'ra Rossiyada neft qazib olish 2020-yilda 550-590 million tonnaga yetganini ko'rishimiz mumkin bunga sabab birinchi navbatda, yangi konlarni ishga tushirilganida. Bugungi kunga qadar Rossiyada uch mingdan ortiq uglevodorod konlari topilgan va o'rganilgan va ularning yarmiga yaqini o'zlashtirilmoqda. Asosan, bu resurslar quruqlikda joylashgan bo'lib, Rossiya neft qazib olishning yarmidan ko'pi va gaz qazib olishning 90% dan ortig'i Ural va G'arbiy Sibirda to'plangan. Ushbu mintaqadagi konlarning aksariyati kamayishi yuqoriligi bilan ajralib turadi, shuning uchun uni asosiy uglevodorod bazasi sifatida saqlab qolgan holda, muqobil ishlab chiqarish hududlarini rivojlantirib bormoqda. Saxalin orolining shelfi, Barents, Boltiqbo'yi va Kaspiy dengizlari kabi neft va gaz qazib olish markazlarini rivojlantirish katta ahamiyat qaratdi. Rossiyadan neft eksporti ham yuqorida aytib o'tilgan neft ishlab chiqarishga, ham uning ichki bozorda iste'mol qilinishiga bog'liq. Bizning hisob-kitoblarga ko'ra, 2010-yilda Rossiyada neft qazib olishning o'sish sur'ati ichki ehtiyojlar uchun neftni qayta ishlashning o'sish sur'atlaridan yuqori bo'lgan. Rossiya geografik jihatdan uchta asosiy neft bozorlari bilan bog'langan: Evropa, AQSh va Osiyo-Tinch okeani mintaqasi. Shu munosabat bilan Rossiyaning Energetika strategiyasi ushbu bozorlarga neft yetkazib berish uchun magistral quvurlar va dengiz terminallari tizimini rivojlantirishni nazarda tutadi. Evropaga yetkazib berishni kengaytirish Boltiqbo'yi quvurlari tizimi (BPS) va Primorsk porti quvvati yiliga 62 million tonnagacha. Bugungi kunda ushbu loyihaning yakuniy bosqichi uchun barcha zarur rasmiy qarorlarni tayyorlash yakunlanmoqda va kelgusi yil oxiriga kelib, Primorsk va BTS o'zlarining maksimal loyihaviy quvvatiga erishadilar. Osiyo-Tinch okeani mintaqasiga kirish uchun Taishet-Tinch okeani neft quvurlari tizimi va Perevoznaya ko'rfazida dedveyti 300 000 tonna bo'lgan tankerlarni yuklash terminali ishlatilgan. Tizimning umumiy quvvati yiliga 80 million tonnaga yetadi.<sup>1</sup> Ayni paytda Rossiyada "Yer qa'ri to'g'risida"gi qonunning yangi tahriri qabul qilingan bo'lib. Ushbu qonunning asosiy maqsadi davlat va yer qa'ridan foydalanuvchilar o'rtasida barqaror o'zaro manfaatli munosabatlarni shakllantirish, yer qa'ridan foydalanuvchilarning yer qa'ridan foydalanuvchilarning javobgarligini oshirish orqali mahalliy mineral-xom ashyo bazasining butun resurslaridan oqilona foydalanishni ta'minlash va uni takror ishlab chiqarish uchun shart-sharoitlar yaratishdan iborat. o'z majburiyatlarini bajarish, mineral-xom ashyo bazasini qayta ishlab chiqarish va konlarni o'zlashtirishga investitsiyalarni rag'batlantirish olib kelinishi nazarda tutilgan.<sup>2</sup> Shu o'rinda Rossiya yoqilg'i-energetika sohasida dunyoda yetakchi o'rinlarda keng tajribaga ega bo'lga davlatlar qatorida bo'lib ushbu davlatning tajribalaridan keng foydalangan holda mamalakatimiz iqtisodiyotida keng natijalarga erishish lozim.

### **Yoqilg'i-energetika kompleksining Qozog'iston misolida**

Qozog'iston O'zbekistonning shimoliy qismida joylashgan bo'lib ayniqsa energetika sohasida strategik hamkorlardan biri sanaladi shu boyisdan ushbu davlatning yoqilg'i-energetika sohasida amalga oshirilayotgan yangi islohotlar va tajribalaridan iqtisodiyotimizning yoqilg'i-energetika sohasida keng qamrovli ishlarni amalga oshirishiz mumkin.

Qozog'istonning Ostona shahridagi Astana Solar korxonasi foydalanishning so'nggi darajasi-fotoelektr modullarini yig'ish amalga oshirilmoqda Qozog'istonning elektr uzatish liniyalari va taqsimlash tarmoqlari 3 qismga bo'lingan: shimolda ikkita va janubda bittasi, ularning har biri biror tashqi energetika tizimi bilan bog'langan. Bu tizimlar bir-biriga faqat bir liniya bilan ulanadi. Qozog'iston Energetika vazirligi ma'lumotiga ko'ra bugungi kunda ikkinchi liniya qurilmoqda Qozog'istonda gaz iste'moli barqaror o'sib bormoqda 2017-2021 yilga qadar u qariyb 5 milliard kubga o'sdi. 2021-yil yakunlari bo'yicha mamlakatning gazlashtirish darajasi 57,67 foizni tashkil etgan, ya'ni 11 million kishi gazdan foydalanishga erishganini ko'rishimiz mumkin. Qozog'istonda gaz masalasi

<sup>1</sup>Rossiyaning yoqilg'i-energetika kompleksi va energetika strategiyasi. [http://www.proatom.ru/modules. News&file=print&sid=583](http://www.proatom.ru/modules.News&file=print&sid=583).

<sup>2</sup> 187513-4-sonli "Yer qa'ri to'g'risida" Federal qonuni.

asosiy masalalardan biri bo'lib. OPEK ma'lumotlariga ko'ra, Qozog'iston jahonda 19-o'rinda, MDHda gaz zaxiralari bo'yicha to'rtinchi o'rinda turadi. Qozog'iston gaz ishlab chiqarish 2019-yilga qadar barqaror o'sib kelgan, shundan so'ng ishlab chiqarish sur'ati bir necha pasaygan. Ammo Qozog'istonda ishlab chiqarilayotgan ko'k yoqilg'ining katta qismi eksport qilinmoqda. Qozog'istonda 2030-yilgacha mamlakatni gazlashtirishning bosh sxemasi mavjud, u aholini gazlashtirishning eng iqtisodiy darajasini ta'minlash va mamlakatning yoqilg'i-energetika balansi tuzilmasida gaz iste'molining ulushini oshirish zarurligini ko'rsatadi. Har yili mamlakatni gazlashtirish uchun davlat byudjetidan qariyb 36-40 mlrd tengge (82-91 mln AQSh dollari) ajratiladi. 2030-yilga kelib ishlab chiqarishni yangi loyihalarni ishga tushirish hisobidan, shuningdek, yoqish va qayta ishlash o'rniga gazni qayta ishlash hisobidan ko'paytirishni rejalashtirmoqda, gazlashtirishning bosh sxemasini amalga oshirish xususiy investitsiyalar va mustaqil gaz taqsimlash tashkilotlari jalb etilgan holda davom ettirilishini maqsad qilgaliklarini ko'rishimiz mumkin.<sup>3</sup> Shu urinda aytishimiz mumkinki Qozog'iston yoqilg'i-energetika sohasi keng revojlantirishda ekanligi bu davlatlarda muqobil energetikaning imkoniyatlari kengligi shu bilan birga ananaviy energetika sohasida yangi bosqichlarning vujudga kelganligini ko'rishimiz mumkin.

Xulosa o'rnida aytishimiz mumkinki O'zbekiston Respublikasida yoqilg'i-energetika sohasini revojlantirishda ushbu davlatlarning ilg'or tajribalaridan oqilona foydalangan holda hozirgi zamon talablariga mos yangi bosqichlarni joriy etishni, mamlakatimizni yil davomida issiqlik kunlari ko'pligini inobatga olib muqobil energetika sohasidagi islohotlarni yanada jadallashtirishni, muqobil energetika turlaridan keng foydalanish imkoniyatlarini yangi bosqichlarini yaratish, yoqilg'i-energetika tizimini tubdan takomillashtirish uchun chet el investorlarini soliq imtiyozlarini qo'llagan holda keng jalb qilishni davom ettirish, sohaga oid yangi texnologiyalar va raqamli energetikasi bilan hududlarni yoqilg'i-energetika mustaqilligiga erishish, yoqilg'i-energetika tamoqlarida bozor mexanizmlarini va yoqilg'i-energetikada uchraydigan xufyona iqtisodiyotga qarshi kurashish mexanizmini joriy qilishimiz zarur.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Rossiyaning yoqilg'i-energetika kompleksi va energetika strategiyasi. [http://www.proatom.ru/modules. News&file=print&sid=583](http://www.proatom.ru/modules.News&file=print&sid=583).
2. 187513-4-sonli "Yer qa'ri to'g'risida" Federal qonuni.
3. Вероятнее всего, АЭС в Казахстане построят на побережье озера Балхаш-Минэнерго // EADaily, 24 мая 2022 год.

<sup>3</sup> Вероятнее всего, АЭС в Казахстане построят на побережье озера Балхаш-Минэнерго // EADaily, 24 мая 2022 год.